



**PAULO KOELONING “ALKIMYOGAR” ROMANIDA
“TAQDIRNING YOZILISHI” MASALASI**

O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti O‘zbek tili va adabiyoti

yo‘nalishi 1-bosqich talabasi

Fayziyeva Sevara Sherali qizi

Ilmiy rahbar: O‘zbek tili va adabiyoti kafedrası assistenti

Yusupov Sardor Shodi o‘g‘li

Annotatsiya. Paulo Koeloning “Alkimyogar” romanida insonning qanday taqdir egasi bo‘lishi uning o‘z qo‘lida, degan qarash mavjud. Bu romanning boshidan oxirigacha Santyagoning sayohat-rivoyatlari orqali sehrli realizm uslubi asosida ochib berilgan. Taqdir Alloh tomonidan ato etilgan oliy haqiqat, mohiyatiga yetish uchun inson aniq maqsad to‘g‘ri yo‘lidan chekinmasligi lozim. Oliy maqsad va unga eltuvchi yo‘l aniq bo‘lmog‘i, unga yetishish uchun ruhan, ma‘nan, jismonan tayyor turmog‘i lozim. Mazkur maqolada inson taqdiri uchun to‘siqlarni yengib o‘tishi kerakligi aks etgan.

Kalit so‘zlar. Paulo Koelo, “Alkimyogar”, adabiyot, tush, taqdir sinovlari, shaxsiy afsona, sinovlar bosqichi.

Adabiyot – bu inson tafakkuri, tuyg‘ulari va hayotiy tajribasini badiiy shaklda ifoda etuvchi san‘at turi hisoblanadi. Chunki inson ruhiy dunyosiga chuqur ta’sir ko‘rsatadi.

Dunyo tanigan zabardast yozuvchilardan bo‘lgan Paulo Koelo Braziliyada yashab ijod etgan. Uning “Alkimyogar” romani dunyoga mashhur asarlardan biri hisoblanadi. Bu asar cho‘pon yigit ya’ni Santyagoning tushi orqali tubdan o‘zgaradi. Ijodkorning “Alkimyogar” romanida yuqorida ham ta’kidlab aytganimdek, inson taqdirini birgina tush ham yuborishi mumkin [2:41].



Santyagoning tushidagi Misr piramidalari yonida yashirin xazinani topishga ishora hisoblanadi. Ammo bu xazina ramziy ma'noga ega: u insonning o'zini anglash hayotiy maqsadini topishidir.

Taqdir bu yerda tayinlangan, lekin uni ro'yobga chiqarish uchun harakat zarur.

Roman davomida Koelo inson yuragi-taqdirning asl yo'l ko'rsatuvchisi ekanini ko'rsatadi.

Taqdirga yetishish yo'lida inson turli sinovlarga duch keladi, yo'ldan adashish, xatolar, yo'qotishlarga duch keladi. Bu sinovlar orqali muallif taqdir faqat passiv kutish emas, balki faol izlanish va qat'iyat ilgari suradi.

Taqdir va tanlov erkinligi haqida gapirganimizda roman orqali taqdirni oldin yozilgan va o'zgarimas yo'l sifatida emas, balki inson o'z tanlovlari orqali unga yetishadigan yo'l deb qaraydi.

Santiago xohlasa, xazinani izlamasligi, o'z hayotini oddiy cho'pon sifatida davom ettirishi mumkin edi. Lekin u tanlov qiladi bu esa taqdir sari qadamdir. Shunday qilib, asarda taqdir va ixtoriylik bir-birini to'ldiruvchi tushunchalar sifatida tasvirlanadi.

Asarda taqdir "shaxsiy afsona" deb atalmish ichki chaqiriq orqali namoyon bo'ladi:

"Agar sen biror narsani chin dildan xohlasang, butun koinot seni unga yetkazish uchun harakat qiladi" [4:92]. Bu jumla asar g'oyasining asosini tashkil qiladi va insonning istaklari bilan taqdir o'rtasidagi bog'liqlikni anglatadi. Bu yerda taqdir nafaqat oldindan yozilgan taqdir yo'l, balki inson irodasi va intilishi bilan shakllantiruvchi yo'ldir.

"Shaxsiy afsona" tushunchasi Koelo tomonidan har bir insonning dunyodagi vazifasi sifatida talqin qilinadi. Santiago o'z afsonasini topish yo'lida turli sinovlardan o'tadi. Bu jarayon orqali muallif taqdirga yetishish insonning qat'iyati, sabr-toqati va ishonchiga bog'liqligini ko'rsatadi.



Taqdir inson imkoniyat sifatida mavjud bo'lsa-da, unga yetishish har doim ham oson emasligi ta'kidlanadi.

Inson o'z taqdiriga erishganida tabiat va koinot kuchlari ham unga yordam beradi. Bu asarda inson o'z yo'lini topish, ichki ovozigacha quloq solish va taqdirga ishonishga undaydi.

Romanda koinot va tabiat tushunchalari afsonaga yaqinlashtiradi. Bu tushuncha so'fiylik, Sharq falsafasi va diniy mistitsizm bilan bilan uyg'unlashgan bo'lib taqdirni faqat yozilgan yo'l emas, balki ongli tanlov sifatida ham tasvirlaydi.

Shuningdek, romandagi Alkimyogar obrazining Santyagoga aytgan quyidagi gap ham muhim:

“Qo'rquv – bu muvaffaqatsizlikdan qo'rqishdir va bu qo'rquv insonni o'z taqdiriga erishishdan to'xtatishdir. Santyagoning taqdiri shunday g'oyani beradi:

Har bir insonning o'z shaxsiy afsonasi (ya'ni chin maqsadi bor). Bu maqsadga erishish yo'lida ko'plab sinovlar va ruhiy o'sish talab qiladi. Xazina (moddiy va ma'naviy boylik) ko'pincha yaqinimizda bo'ladi, lekin uni topish uchun uzoq yo'l bosib, o'zimizni kashf qilishimiz kerak.

Santyagoning taqdiri:

1. Santyago tushida xazina ko'radi. Bu o'zining “Shaxsiy afsonasi”ni izlashga undaydi.
2. U cho'ponlik hayotini tark etib, Tangler (Marokash) orqali Sahrodagi sayohatga chiqadi.
3. Safar davomida u aldangan bo'ladi, ishlaydi, bilim oladi, yangi odamlar bilan uchrashadi, masalan, Kristall magazin egasi, angliyalik olim, eng asosiysi Alkimyogar bilan.
4. U Fotimaga oshiq bo'ladi, lekin orzusi yo'lida yurishda davom etadi.
5. Xazina izlab Misrga boradi, ammo u yerda tushining asl ma'nosi ochiladi: xazina aslida uning boshlang'ich nuqtasi hisoblanadi.



Alkimyogar – bu taqdirning inson qalbida yashiringanini, unga yetishish va jasorat, ishonch va izlanishni talab qilishini ko'rsatadigan ruhiy yo'l hikoyasidir. Paulo Koelo o'z asarida taqdirni oldindan belgilangan holat emas, balki har bir insonning yuragida yashiringan xazina sifatida tasvirlaydi. Bu xazina – hayot ma'nosini topish, o'zini anglash va chin baxtga erishishdir.

Alkimyogar asari bugungi zamon adabiyotining eng ko'p o'qilgan va o'z o'quvchisini topgan asarlardan biridir. Asar o'zining sodda tili, chuqur falsafiy mazmuni va ruhiy izlanishga undovchi g'oyalar bilan ajralib turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. B.Xasanov. Zamonaviy adabiyotda falsafa va ruhiyat. Toshkent, Akademiknashr, 2022.
2. M.Karimova. "Paulo Koeloning ijodida ruhiy o'sish motivlari". Adabiyot nazariyasi jurnali, 2021, 34-41 b.
3. T.Yusufov. Adabiyot va falsafa: uyg'unlik masalalari. Toshkent, Fan nashriyoti. 2019. 78-84 b.
4. P.Koelo. Alkimyogar. Toshkent, "Yangi asr avlodi" nashriyoti. 2006. 23-48, 92-96 betlar.
5. Jaloliddin Rumi. Masnaviy ma'naviy. Sharq falsafasi nuqtayi nazaridan.
6. Tohir Malik. Falsafa va adabiyot. Toshkent, Akademnashr, 2006.